



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish  
respublika ilmiy-metodik markazi

## **Darslarni samarali va sifatli tashkil etishda zamonaviy yondashuv**

Fayziyeva Marhabo Shamsiddinovna Buxoro viloyati Kogon  
tumani 21-IDUMning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Jon Dewey**  
(Amerikalik faylasuf,  
psixolog, zamonaviy  
ta'lim tizimiga katta  
hissa  
qo'shgan shaxs).



Zamonaviy darslar o'qituvchining faolligi, o'quvchilarning ishtiroki va ularning ehtiyojlariga moslashtirishga asoslanishi kerak. Darsning faol o'tishi o'quvchilarning muammoli vaziyatlarga qo'yish va ularni hal etishga undash kerakligidir.

# ZAMONAVIY YONDASHUV NIMA?

- Zamonaviy yondashuv- bu ma'lum bir masala yoki muammoni hal qilishda zamonaviy metodlar, g'oyalar va strategiyalarni qo'llash tushunchasidir. Bu yondashuv ko'pincha innovatsion fikrlash interdisiplinar yondashuvlar va texnologik yechimlar bilan ajralib turadi.
- Innovatsion fikrlash – Yangi g'oyalarni rivojlantirish va yangi tajribalarni qo'llash.
- Interdisiplinar yondashuv – turli sohalar bilimlarini birlashtirish va o'zaro ta'sir orqali yaxshiroq natijalarga erishish.
- Texnologik yechimlar- Bir muammoni hal qilish yoki maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan texnologik jarayonlar va vositalarni nazarda tutadi. Bu yechimlar odatda tizimlar, dasturlar, ilovalar yoki uskunalar ko'rinishida bo'lishi mumkin.



# Karl Popper (Avstraliyalik faylasuf)



- Zamonaviy yondashuv aniq va o'zgaruvchan bo'lishi zarur.

# DARSNI SAMARALI VA SIFATLI TASHKIL ETISH UCHUN:



- Maqsadni aniq qo'yish – har bir darsning aniq maqsadi bo'lishi zarur. Bu o'quvchilarga nima qilish kerakligini tushunishga yordam beradi.
- Klassik va innovatsion usullardan foydalanish – darsda klassik metodlarni ( ma'ruza, muhokama, savol – javob), zamonaviy usullar (guruhda ishlash, loyiha ishlari, hamkorlikda ishlash) bilan birlashtirish.
- Interaktiv yondashuv – o'quvchilarni faol jalb etish, savol- javob, fikr almashish qisqa o'yinlar orqali
- Texnologiyalardan foydalanish- zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan (multmediya, onlayn platformalar) foydalanish o'quvchilarni qiziqishlarini oshiradi.

# UNUTMANG!



- Darsni samarali va sifatli tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash:
- O'qituvchilarning samaradorligini oshirish va o'quvchilarni muvaffaqiyatga erishishlariga yordam berishning muhim jihatlaridan biridir.
- Zamonaviy yondashuvlar murakkab masalalarni yechishda samaradorlikni oshirish va innovatsion yechimlar ishlab chiqishga yordam beradi.

# O'QITUVCHILARGA TAVSIYALAR



- Loyihali o'qitish
- Fikr almashish va mulohaza
- Texnologiyalardan foydalanish
- Differensial o'qitish – har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olib, darsni moslashtirish
- O'quv jarayonini baholash

# TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Darslarni samarali va sifatli tashkil etishda zamonaviy yondashish, turli texnologiyalardan foydalanish o'quvchi va o'qituvchi uchun samarali va foydali hisoblanadi. Turli saytlardan, dasturlardan, internet tarmoqlaridan, ilovalardan, multimedialardan foydalanish hozirgi zamon talablaridan biridir.

1- sinf o'quvchilari uchun "Bek va Lola" multimedia o'qituvchilar uchun

Edrav max dasturi Power Point dasturi

Raqamlar mosligi (Number Match) ilovasi

Sun'iy intellekt texnologiyasi



# “KEMA” METODI

- Kema metodining mazmuni: O‘quvchilarga savod o‘rgatish davrida unli va undosh tovushlarni talaffuzi, yozilishi o‘rgatiladi. Unli va undosh tovushlardan bo‘g‘inlar hosil qilinadi. Ko‘pgina o‘quvchilar bo‘g‘in hosil qilishga qiynaladilar. Bu metod orqali oson bo‘g‘in hosil qiladilar.
- Duskada dengiz tasviri tasvirlanadi. Dengizning ikki tomonida qirg‘oq bor. Qirg‘oqning o‘ng tomonida unli tovushlar, chap tomonida undosh tovushlar joy oladi. Shu bugun darsda undosh tovush o‘tgan bo‘lsak, kema chap tomondagi qirg‘oqdan o‘tilgan harfni olib, bo‘g‘in hosil qilish uchun o‘ng tomonga unli tovushlarga qarab suzib ketadi. Unli tovushlar qirg‘og‘idan o‘tilgan unli tovushni olib ikkalasi bo‘g‘in hosil qiladi. Shu o‘rinda qanday bo‘g‘in hosil bo‘lganligi aytib o‘tiladi. Ochiq bo‘g‘in hosil bo‘ldimi yoki yopiq bo‘g‘in.



# “KEMA” METODI

1-sinfda savod o‘rgatish  
davrida qo‘llaniladigan  
metod.


O

I

U

O‘

E A



L

K

M

T

R

S

D

# “SONLI NURDA SHAMLAR” METODI

- 4- sinf matematika darsligi
- “Kasrlarni sonli nurda tasvirlanishi” mavzusi o‘quvchilarga tushunarli bo‘lish maqsadida o‘tkaziladi. Bu metodni darsni mustahkamlash bosqichida o‘tkazilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.
- Uzun arqon olinadi va undan sonli nur hosil qilinadi. Nurning boshi va oxiri strelkasi qo‘yiladi.
- Arqonni teng o‘nta birlik kesmaga bo‘lib chiqamiz va har bir teng bo‘laklarga shamlarni qo‘yib chiqamiz. So‘ng shamlarni yoqamiz. 10 ta sham ketma- ketlikda yonib turadi.
- Sharti: O‘quvchi chiqib bir nafasda shamlarni puflaydi. Puflaganda nechta sham o‘chsa, o‘quvchi kasr ko‘rinishida yozib beradi. Masalan: 6 ta sham o‘chdi. 10 ta sham yonib turgan edi. Demak, 10 dan 6 qism deb doskaga kasr ko‘rinishida yozib beradi.
- Natija: O‘quvchilarni qiziqishlari ortib, mavzuni tushunishlari oson bo‘ladi. Birlik kesma, kasr tushunchalarini oson tushunib oladilar.

# “SONLI NURDA SHAMLAR” METODI

- “Kasrlarning sonli nurda tasvirlanishi” mavzusini o‘quvchilarga sodda qilib tushuntirish uchun (4- sinf 81- mavzu, 32- sahifa.) quyidagi metoddan foydalanish maqsadga muvofiq.



# “SEHRLI RANGLI QALAMLAR” METODI

- Oddiy yog‘och cho‘pda, xuddi chizg‘ich ko‘rinishida uzunroq nur qilib tayyorlab olamiz. Yog‘och nurni boshi va oxirini belgilaymiz. Bir xil birlik kesmalarga bo‘lib, rangli qalamlarni birlik kesmalar ustiga yopishtiramiz. Nechta birlik kesma qilishingiz ixtiyoriy. Keling, 15 ta birlik kesma bo‘lsin. O‘quvchilarga har bir rangli qalam qaysi o‘rinda ekanligini tushuntirasiz. Masalan: sariq qalam-1-koordinatada, qizil qalam-2-koordinatada... va hokazo. 15 ta qalamlar ranglari har xil bo‘lib 15 ta birlik kesmani egallagan. Savol bilan murojaat qilasiz. Qizil qalamni koordinatasini topib bering? Qizil qalam 2- birlik kesmada turganini o‘quvchilar ko‘rib turishibdi. Ularning javoblari tinglanadi. Demak qizil qalam 15 dan 2 koordinatada turibdi. Buni kasr ko‘rinishida yozib ko‘rsatadi.

# KASRLARNI SONLI NURDA TASVIRLANISHI

- Daftaringizga sonli nur chizing. Noldan 18 katak uzunlikda birlik kesma ajrating. Uni 18 ta qismga bo'ling.  $\frac{1}{18}$  ulush nechta shunday qismni o'z ichiga oladi?
- $\frac{1}{3}$  ulush-chi ?
- $\frac{1}{6}$  ulush-chi ?
- $\frac{1}{2}$  ulush-chi ?



YOG'OCHDAN SONLI NUR TAYYORLAB, UNI 18 TA KATAK UZUNLIKDA BIRLIK KESMAGA AJRATDIM. 18 TA QISIMGA BO'LDIM.

Topshiriqda berilgan savollarga birin ketin javob topib bordik.

$\frac{1}{18}$  ulush, 18 ta shunday qismni o'z ichiga oladi.

$\frac{1}{3} = \frac{6}{18}$  ulush, 3 ta shunday qismni o'z ichiga oladi.

$\frac{1}{6} = \frac{3}{18}$  ulush, 6 ta shunday qismni o'z ichiga oladi.


$\frac{1}{2} = \frac{9}{18}$  ulush, 2 ta shunday qismni o'z ichiga oladi.

O'quvchilar topgan qismlarini yog'ochdan yasalgan sonli nurga chiqib belgilaydilar.

# MUAMMOLAR DARAXTI

- Muammolar daraxti — vizual uskuna hisoblanadi. U muammoni kelib chiqish sabablari va oqibatlarga ajratishga yordam beradi.
- Koʻz oldingizga bitta daraxtni keltiring. Deylik, uning tanasi asosiy muammoni tasvirlaydi.
- Ildizlari esa ushbu muammoning sabablarini tasvirlaydi.
- Daraxtning shox va barglari esa uning oqibatlarini tasvirlaydi

OQIBATLARI



ASOSIY MUAMMO

MUAMMONING SABABI (DIAGNOZ)

# “SO‘Z O‘YINI” METODI

- Bu metoddan barcha fanlarda foydalansa bo‘ladi.
- Kvadrat shaklidagi katakchalarga harflar joylashtirilgan.
- Ketma-ket va takror bo‘lib kelgan harflarni ustini bo‘yab chiqish aytiladi.
- Qolgan harflar yozib chiqiladi. Yozgan vaqtimizda so‘z hosil bo‘ladi.
- O‘zingizni faningizga moslab harflarni qo‘yishingiz mumkin.

| s | l | s | f | t  | o  | sh | o |
|---|---|---|---|----|----|----|---|
| j | a | k | y | t  | u  | g  | k |
| e | l | q | p | f  | a  | k  | q |
| b | d | e | b | j  | h  | o  | b |
| h | p | x | r | m  | x  | v  | m |
| o | i | y | q | n  | m  | v  | y |
| v | h | f | t | ch | l  | ch | z |
| z | e | t | e | x  | ng | a  | y |
| t | j | h | k | q  | o  | s  | m |

# “SO‘Z O‘YINI” METODI

- Ona tili fanini o‘qitishda o‘quvchilarni qiziqishini oshirish va bilimlarini mustahkamlash uchun ishlatiladigan samarali metodlardan biridir.
- Bu metod orqali o‘quvchilar so‘z boyligini oshiradi, mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi va ijodiy ko‘nikmalarini kuchaytiradi.
- Sh u d r i n g so‘zi hosil bo‘di.

|  |   |  |   |  |    |    |  |
|--|---|--|---|--|----|----|--|
|  |   |  |   |  |    | sh |  |
|  |   |  |   |  | u  |    |  |
|  |   |  |   |  |    |    |  |
|  | d |  |   |  |    |    |  |
|  |   |  | r |  |    |    |  |
|  | i |  |   |  |    |    |  |
|  |   |  |   |  |    |    |  |
|  |   |  |   |  | ng |    |  |
|  |   |  |   |  |    |    |  |

# “YASHIRINGAN AMALLAR TARTIBI” METODI

- Bu metoddan barcha fanlarda foydalanish mumkin.
- Bunda o‘quvchilar so‘z va bo‘g‘inlarni qo‘shib, ayirib, yangi so‘zlar hosil qilish orqali matematik amallar tartibini bajarishadi.
- Bu metoddan foydalanish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi, tez fikrlashiga yordam beradi. Yangi so‘zlar hosil qiladi. Asosiysi mantiqan fikr yuritadilar.
- O‘zbek+ (guliston- gul )= O‘zbekiston  
 $5 + (8 - 3) = 5 + 5 = 10$
- Bilim+ (guldon- gul)= Bilimdon  
 $5 + (6 - 3) = 5 + 3 = 8$
- (maktub- tub)+(masshtab- massh)= maktab  
 $(5 - 3) + (7 - 4) = 2 + 3 = 5$
- (quduq-uq)+(surat-su)= qudrat  
 $(5 - 2) + (5 - 2) = 3 + 3 = 6$



# “SO‘ZLAR XAZINASI” (QIDIRUV O‘YINI)

- Sinfga turli joylarga mavzuga mos so‘zlar yozilgan kartochkalarni yashirib qo‘yaman.
- O‘quvchilar kartochkalarni topib, ulardan gap yoki matn tuzishadi.
- Masalan: Kartochkalardagi so‘zlar:  
“Gul”, “Daraxt”, “Bog‘ ”  
Gap: “Bog‘larda gullar va daraxtlar bor”  
Natija: Harakat va fikrlashni birlashtiradi.

Daraxt


Gul

Bog‘

# “QIZIQARLI HIKOYA” (TAFAKKUR VA NUTQNI RIVOJLANTIRISH)


- O‘quvchilarga qiziqarli va qisqa voqea o‘qib bering, lekin bir joyini ochiq qoldiring.
- O‘quvchilar ochiq qoldirilgan joyni o‘z so‘zlari bilan davom ettiradi.
- Masalan: Bolalar yozgi ta’tilda oromgohga bordilar. U yerda qiziqarli o‘yinlar o‘ynashdi. Bolalar uxlashga yotdilar. Tunda ulardan biri... (nima bo‘ldi?)
- O‘quvchilar o‘z so‘zlarini ishlatib, hikoyani davom ettiradilar.

Natija: Ijodkorlikni va nutqni rivojlantiradi.



# TAVSIYALAR

- Tayyorlangan dars ishlamasidan yoki qog'ozdan o'qib bermang.
- O'quvchilarga adabiy til meyyorlariga e'tibor bergan holatda gapiring.
- O'zingizni harakatlaringizni boshqaring
- Ko'z kontakti
- O'quvchilarni tekshirib boring
- Esda tuting: maqsadlarga erishishning bir necha yo'llari mavjud-moslashuvchan bo'ling!



**E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!**